

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10858884>

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BADIY ASAR O‘QISHGA VA TAHLIL QILISHGA TAYYORLASH

Ortiqova Dilsabo Munavvarjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-bosqich talabasi

dilsabooriqova1208@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni badiy asar o‘qishga va tahlil qilishga tayyorlash haqida tushunchalar berib o‘tilgan. Badiy asarlarni tahlil qilish metodik qoidalar orqali yoritilib berilgan va o‘qishni foydali taraflari ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Badiy asar, matn, 4-sinf o‘qish kitobi, hikoya, muallif, kinofilm, she’r, xalq og‘zaki ijodi.

АННОТАЦИЯ

В статье изложены понятия о подготовке учащихся начальных классов к чтению и анализу художественных произведений, на основе методических правил объясняется анализ художественных произведений, а также упоминаются полезные стороны чтения.

Ключевые слова: художественное произведение, текст, тетрадь для чтения в 4 классе, рассказ, автор, фильм, стихотворение, фольклор.

ABSTRACT

In this article, concepts are given about preparing primary school students for reading and analyzing works of art. Analyzing works of art is explained through methodical rules, and useful aspects of reading are also mentioned.

KEY WORDS: work of art, text, 4th grade reading book, story, author, film, poem, folklore.

Badiiy asarlarni o‘qishga kirishdan oldin o‘quvchilarni badiiy asarlar o‘qishga tayyorlash kerak. Chunki o‘quvchilar asar mazmunini tushunishlari uchun to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Buning uchun tayyorgarlik ishlari o‘tkaziladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sinfda o‘qishi uchun badiiy va ilmiy-ommabop matnlar asosiy o‘rinda turadi. Ya’ni o‘quvchilarni birinchi navbatda matn bilan tanishtirish o‘qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi.

Tayyorgarlik bosqichi bu o‘quvchilarni badiiy asarlarni o‘qishga qulaylik yaratuvchi asosiy boshqichdir bunda yozuvchilar haqida ma’lumot beriladi, o‘quvchilar asarda tasvirlangan voqeа-hodisalarini idrok qilishi, asar pafosini his etishi, murakkab obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Darsda matn bilan tanishib bo‘gach, o‘quvchilarni faolligini oshirish uchun quydagи savolar bilan murojat qilishimiz mumkin.

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o‘ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining xatti-harakatini ma’qullaysiz?

Qaysi birining fe’l-atvori, o‘zini tutishi sizga yoqmadи?

3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1.O‘quvchilarning asarda voqeа-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishi uchun yangi ma’lumotlar berish, badiiy asardagi voqeа va tasvirlarni o‘z hayotida kuzatganlari bilan bog‘lay olishi.

2.Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg‘otish .Masalan, bolalarning sevimli ijodkori Zafar Diyorning hayoti va ijodi haqida quyidagicha ma’lumotlar berish mumkin: Zafar Diyor Namangan viloyatining Chust tumanida tug‘ilgan. Ota-onasi dehqon bo‘lgan. Ular kambag‘allikda kun kechirishgan.

3. O‘quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.
4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirish.

- Og‘zing ochilib qolsin – hayron bo‘lib qolgin;
- Qolipdan chiqqan g‘ishtdek – hamma tomoni birdek tekis ;

- Loqayd – befarq ;

- Kashfiyot – izlanishlar natijasida yaratilgan narsa, ixtiro;

- Ayilday botdi – qattiq tegdi, ranjitdi;

Ekskursiya bolalarda tabiatga mehr uyg‘otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hisini tarbiyalaydi.O‘quvchilar avval film tomosha qilib keyin asar o‘qisa idrok qilishlari yuqori bo‘ladi. O‘quvchilarning film namoyishida tug‘ilgan ayrim savollariga ularning o‘zлari yangi o‘qiydigan asarlardan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyuştirish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini ham oshiradi. Boshlang‘ich sinfda shoir, yozuvchilarning o‘z tilidan o‘qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni magnit tasmasidan eshittirilsa yoki video tasmadan ko‘rsatilib, unga o‘qituvchi hikoyasi qo‘silsa, darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4-sinfda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi aytilgach, A. Oripovning o‘zi aytgan ”O‘zbekiston” she’ri qo‘yib eshittirilishi mumkin. O‘qituvchilarni ichki istagi kuchayishi uchun badiiy asarlarni hayajonli qilib hikoya qilsa yokida shoirlar haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar saviyasiga mos qilib tushuntirilsa ko‘zlangan maqsadga erishiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni Buxorodagi tarixiy muzeyga taklif etadi. Muzeyda o‘quvchilar Abu Ali ibn Sino portretini kuzatadilar, u haqidagi yozuvlarni o‘qiydilar (Muzey uchun sinfning biror qismi ajratiladi). O‘quvchilarni mustaqil izlanishga o‘rgatishning yana bir usuli o‘quvchilarga oldindan yozuvchi yoki asar yozilgan davr haqida kitoblar, manbalar tavsiya etib, ulardan ma’lumotlar to‘platisf, albomlar tayyorlatish, so‘ng o‘quvchilar o‘zлari aniqlagan ma’lumotlarni o‘qib, so‘zlab berishidir. O‘quvchilar sinfdan sinfga o‘tish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bilimlari ortib boradi. Shu asosida badiiy asarlarni o‘qishga bo‘lgan muhabbat kuchayadi..

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarin shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o‘qish malakalarini takomillashtirish topshirig‘i ham hisoblanadi).

2. Asarning g‘oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig‘i, kompozistiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiylamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog‘lanishli nutqining o‘sishi (lug‘atining boyishi va faollashishi)ni ta’minlaydi.

3. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o‘qishga o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asarlar o‘qishga tayyorlash shu tartibda davom etadi va o‘z navbatida badiiy asalarni ham tahlil qilish asar mazmunini to‘liqroq tushunishiga, o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini oshishiga ordam beradi. O‘quvchilar badiiy asarlarni tahlil qilishda albatta o‘xshatish, qiyoslash, mubolag‘a, jonlantirish va ertaklar, hikoyalar, ndostonlar, maqollar, she’rlar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi. Yana shu bilan birgalikda badiiy asar o‘qishning foydali taraflari ham juda ko‘p ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy asar o‘qishni o‘rganishni boshlagan vaqtida badiiy asarga bo‘lgan muhabbati yuqori bo‘lishi uchun poydevor bo‘ladi. Shu bilan birgalikda boshlang‘ich sinflarda badiiy asarni o‘qishga tayyorlash va tahlil qilish shulardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. ”Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”. T.”Bayoz”, 2022. 57-bet.
2. Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Darsliklar 1-4-sinf O‘qish kitobi.